
Rishton tumanining Oq tomir MFYdagi Oq-tomir - Bog'iston-3 tutashuvchi yulni ta'mirlash bo'yicha ilgari surilgan tashabbus "Tashabbusli byudjet" loyihasi g'olibligini qo'lga kiritdi

Respublika Moliya Vazirligining "Ochiq byudjet" axborot portali orqali amalga oshirib kelinayotgan "Tashabbusli byudjet" loyihasining navbatdagi yo'nalishi - "Mening yo'lim" loyihasi g'oliblari e'lon qilindi. Mamlakatimiz hududlari bo'yicha mahallalar yo'llarini sozlashga qaratilgan ushbu loyihada Rishton tumanining "Oqtomir" mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli "Oq-tomir Bog'iston-3 tutashuvchi yulni ta'mirlash yuzasidan ilgari surilgan tashabbus ham g'olib deb topildi. Mahalla ahlining faolliklari natijasida mahalla uchun 320 million so'm mablag' davlat byudjetidan sarflanishi belgilangan. Ma'lumot o'rnida "Mening yo'lim" loyihasida respublika bo'yicha 366 ta tashabbus g'olib deb topilib, shundan Oqtomir MFY bo'yicha ilgari surilgan tashabbus jami 12374 ta ovoz to'plab, 6-o'rinni qo'lga kiritdi.

2022-05-05 11:36:13